

## QOIDALI O‘YIN BOLALARING UYG‘UN RIVOJLANISHI VOSITASI SIFATIDA

**Umarova Mehriniso Ibragim qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Bolalarni tarbiyalash va o‘qitish uchun didaktik o‘yinlardan foydalanish olimlarning asarlarida va ko‘plab o‘qituvchilarning amaliy faoliyatida o‘z aksini topgan. Darhaqiqat, mактабгача та’лимнинг har bir pedagogik tizimida didaktik o‘yinlar alohida o‘rin egallagan va hozirgacha egallab kelmoqda.

**Kalit so‘z:** didaktik o‘yin, texnologiya, bolalar, kognitiv, o‘yin, rivojlanish.

Taniqli rus pedagogi K. D. Ushinskiy ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogning roli va shaxsiga yuqori baho berib, “Pedagog kasbiga oid ilmiy mulohazalarida hech bir Qonun yoki Programma, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi metod yoki tamoyillar pedagog shaxsining pedagogik faoliyatdagi mahorati o‘mini bosa olmaydi” deb hisoblaydi.

Buyuk rus adibi L.N.Tolstoy tarbiyachi fazilatining mukammalligini o‘z mutaxassisligiga nisbatan ijobjiy munosabatda bo‘lishi bilan bir vaqtida bolalarga bo‘lgan munosabatida, ularni xuddi o‘z farzandlaridek jon-dilidan sevishida ekanligida ko‘rgan. Uning ta’kidlashicha, ”agar pedagog faqat ishiga havas qo‘ygan bo‘lsa, u yaxshi pedagog bo‘ladi. Agar pedagog bolaga faqat otasi va onasi kabi havas qo‘ygan bo‘lsa, u oldingi pedagogdan yaxshiroq bo‘ladi. Bordiyu, ikkala hislatni ham o‘zida mujassamlashtirsa, u holda u mukammal pedagog bo‘la oladi”. Hozirgi kunda ham yevropaning yetakchi olimlari (B.P.Zyazin, V.A.Kan-Kalik, Y.N.Kyuluytkin, N.D.Nikandrov, L.I.Ruvinskiy va boshqalar) o‘qituvchi-tarbiyachilarning pedagogik mahoratini yanada takomilashtirish uchun ilmiv-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasida tarbiyachi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘ymoqda. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quydagilarni qayd etadi: “Tarbiyachi - ustoz bo‘lish uchun, boshqalaming aql-idrokini o‘sirishi, ma’rifat ziyyosidan bahramand qilishi, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o‘zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak”. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib bugungi kun tarbiyachisi shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi.

Tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini milliy an'ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirish uchun metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo'ldi. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda. XXI asrga kelib tarbiyachining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Ta'limning asosiy maqsadi pedagogda ijtimoiy zarur sifatlarni va kompetensiyani, shaxs sifatida o'z-o'zini anglash, o'z bilimlarini doimiy oshirib borish, o'z-o'zini boshqarib borish va faollashib borishni shakllantiradi.

Albatta, bu mavzuning o'rganilganligi darajasini ko'plab xorijiy va mamlakatimizdagi mutaxassislar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ko'rishimiz mumkin. Agar biz AQSh oliy pedagogik ta'limi tizimi faoliyatiga nazar tashlamoqchi bo'lsak, B.D.Vulfson, T.N.Kurilova, Z.A.Malkova va boshqalarning ilmiy ishlarini, agar AQSh pedagogik ta'limining maqsadlari haqida bilmuoqchi bo'lsak, N.D.Nikandorova, V.Ya.Pilipovskiy, bo'lg'usi o'qituvchilarining kasbiy pedagogik ta'limi bo'yicha G.G.Agapova, O.O.Borovikova, V.S.Budenko va boshqalarning ishlarini, AQSh o'qituvchilarining malaka oshirish tizimi haqida esa V.B.Gargay, N.I.Kustinova va boshqalarning ishlariga nazar tashlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning ilmiy ishlaridan Rossiya va AQSh ta'lim tizimi bir-birini to'ldirib boyitganligini tasavvur qilishimiz mumkin. AQSh, Kanada, Avstraliya va bir qator Yevropa mamlakatlarida pedagogik kadrlar tayyorlashning uzlusiz tizimi yaratilganligi ko'zga tashlanadi va ular bu muammoni ma'lum bir tizimga solib keng o'rganmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish – bu kasbiy, shuningdek, umumiyl insoniy munosabatlarning kombinatsiyasidir, buning natijasida nafaqat o'quv jarayonini samarali boshqarish, balki vazifalarni bajarish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli hal qilish mumkin bo'ladi.

Bu, shubhasiz, kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish va pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishga ta'sir qiladi. Lug'aviy jihatdan "qobiliyat", mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish" ma'nosini anglatuvchi kompetentlik negizida muayyan sifatlar namoyon bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. U Mekhriniso “The use of creative games in the educational process in preschool education” Web of Scientist: International Scientific Research Journal <https://wos.academiascience.org>. Published: May 19, 2022
2. M Umarova “MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING O‘ZIGA XOSLIGI” Журнал естественных наук, 2022/8/25 <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/natscience/article/view/6538>
3. M Umarova “PRINCIPLES OF COMMUNICATION CULTURE DEVELOPMENT IN PRESCHOOL CHILDREN” Conferencea, 2023/3/7
4. U Mehriniso “BOLALARDA EKALOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH” <http://tadqiqotlar.uz/index.php/01/article/view/526/505> 11-son\_1-to‘plam\_Aprel-2023
5. MI qizi Umarova “PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN’S PHYSICAL AND MENTAL DEVELOPMENT IN RULED GAMES” Educational Research in Universal Sciences, 295-297 2023.5.24 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2352>
6. M Umarova, A Ro‘ziyeva “MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYATNING AHAMIYATI” Наука и инновация, 2023 1(6), 33–35 <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/14283>
7. MI qizi Umarova “RIVOJLANIRUVCHI O ‘YIN TEXNOLOGIYASI VA UNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARНИNG JISMONIY VA RUHIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI” Educational Research in Universal Sciences, 1172-1176 2023.6.16 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3037>
8. MI kizi Umarova “DEVELOPMENTAL GAME TECHNOLOGY AND ITS IMPORTANCE IN THE PHYSICAL AND MENTAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN” Educational Research in Universal Sciences 196-198 2023.7.27 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3368>
9. MI qizi Umarova “QOIDALI O‘YIN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING UYG ‘UN RIVOJLANISHI VOSITASI SIFATIDA” Educational Research in Universal Sciences 193-195 2023.7.27 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3366>
10. ST Xabilova, M Nazarova “MENTAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN” Innovative research in modern education 97-99 2023.5.17 <http://aidlix.com/index.php/ca/article/view/651>
- 11 S Xabilova “EDUCATION OF FUTURE PRESCHOOL TEACHERS IN A MODERN SPIRIT” International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research

- 3(4) 132-135 2023.4.26  
<http://www.researchcitations.com/index.php/ibmscr/article/view/1234>
11. MI qizi Umarova “BOLALARNING JISMONIY VA RUHIY RIVOJLANISHI UYG ‘UNLIGINI TA ’MINLASH METODIKASI” Educational Research in Universal Sciences 263-265 2023/8/17 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3580>
12. MI qizi Umarova “QOIDALI O ‘YINLARDA BOLALARNING JISMONIY VA RUHIY RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI” Educational Research in Universal Sciences 266-268 2023/8/17  
<http://erus.uz/index.php/er/article/view/3581>